

Boshlig‘ichlilar haqida umumiy tushuncha va ularning xilma-xilligi

Shokirova Mohizodabegim

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya yo‘nalishi 1-bosqich 103 - guruh talabasi

Annotasiya :Bo‘shliqichlilar, kovakichlilar (Coelenterata) — tuban tuzilgan suvda yashovchi umurtqasiz hayvonlar tipi. Bo‘shliq‘ichlilar eng katta ko‘p hujayralilar, vend davridan ma‘lum.

Kaliy so‘zlar : bo‘shliqchlilar ,poliplar ,gidralar , korall polip , meduza , aktiniya.

Bo‘shliqichlilar, kovakichlilar (Coelenterata) — tuban tuzilgan suvda yashovchi umurtqasiz hayvonlar tipi. Bo‘shliq‘ichlilar eng katta ko‘p hujayralilar, vend davridan ma‘lum. Ko‘pchilik turlari dengizlarda yakka yoki koloniya bo‘lib yashaydi. Dengiz bo‘shliq‘ichlilarning hayot siklida o‘troq yashovchi polip va erkin suzib yuruvchi meduza davrlari gallanib turadi (metagenez). Ayrim bo‘shliqichlilar (gidralar, korall poliplar)ning meduza davri bo‘lmaydi, ba’zi ssifomeduzalar va gidroidlarning polip davri yo‘qolgan. Alohida Bo‘shliq‘ichlilarning tanasi tashqi ektoderma va ichki endodermadan iborat ikkita qavatdan tashkil topgan. Ektoderma va endoderma oralig‘ida hujayrasiz, quyucmodda — mezogliy bo‘ladi. Bo‘shliqichlilar. tanasi hujayralari to‘la ixtisoslashmaganligi uchun to‘qima va organlari rivojlanmagan. Ektodermasidagi hujayralarning asosiy qismi epiteliymuskul, otuvchi va ixtisoslashmagan oraliq hujayralardan iborat. Epiteliymuskul hujayralari qoplash va harakatlanish funksiyalarini bajaradi. Otuvchi hujayralar o‘ljani falajlab ushlab va himoya vazifasini bajaradi, ularda otuvchi ipchalarga ega bo‘lgan otuvchi kapsula shakllanadi. Oraliq xujayralar boshqa hamma hujayralarni hosil qiladi. Endodermada epiteliymuskul va oziqni qamrab olib hazm qiluvchi bezli xujayralar bo‘ladi. Tana bo‘shlig‘i qopga o‘xshash bo‘lib, maxsus to‘siq (septa) lar yordamida kameralarga bo‘lingan, meduzalarda murakkab naylar sistemasidan iborat. Tana bo‘shlig‘i og‘iz teshigi orqali tashqariga ochiladi. Og‘iz teshigi paypaslagichlar bilan o‘ralgan. Og‘iz teshigi orqali oziq moddalar tana bo‘shlig‘iga o‘tadi va hazm bo‘lmagan oziq moddalar chiqib ketadi. Oziq tana bo‘shlig‘ida va endoderma hujayralari ichida hazm bo‘ladi. Nerv sistemasi diffuz (tarqoq), tartibsiz joylashgan, o‘simtalari orqali bir-biri bilan tutashib ketadigan nerv hujayralaridan iborat.

Meduzalarda bundan tashqari soyaboni chetida ikkita nerv halqasi, sezgi organlari — yorug‘lik sezuvchi ko‘zchalar, muvozanat organlari (statotsistlar) va ropaliyalar (ssifomeduzalar) bo‘ladi. Jinsiy va jinssiz ko‘payadi. Jinssiz kurtaklanish orqali bir qancha turlar koloniya hosil qiladi. Ko‘pchiligi ayrim jinsli. Gidroidlarning jinsiy hujayralari ektodermada; ssifoid va korall poliplarda endodermada hosil bo‘ladi. Ko‘pchilik dengiz boshlig‘ ichlilarda urug‘langan tuxum hujayradan erkin suzib yuradigan planula lichinkasi chiqadi. Planuladan metamorfoz orqali polip, ba‘zan meduza vujudga keladi. O‘troq yashovchi poliplarda meduzalar polipning kurtaklanishi tufayli hosil bo‘ladi. 4 sinf: gidrozoylar, ssifomeduzalar, korall poliplar va qirilib bitgan konulyatlar (Conulata) ga bo‘linadi. 9000 dan ortiq turi ma‘lum, barcha dengizlarda, ba‘zi turlari (gidralar va ayrim meduzalar) chuchuk suvlarda uchraydi. Yirtqich yoki plankton bilan oziqlanadi. Ayrim turlari boshqa organizmlar uchun oziq bo‘ladi. Yirtqich turlari oziq uchun baliqlarga konkurentlik qilishi tufayli zararli hisoblanadi. Bo‘shliqchililar orasida yashil xivchinlilar, turli yashil o‘simliklar bilan simbioz yashovchilari ham bor. Koloniya bo‘lib yashovchi korall poliplar orollar hosil qiladi va ko‘pchilik dengiz hayvonlari uchun pana joy hisoblanadi. Korall poliplar qisman qurilish materiali va zebziynat uchun foydalaniladi.

Gidralar (Hydrida) — bo‘shliqchililar tipiga mansub umurtqasiz hayvonlar turkumi. Ko‘pincha yakka, ba‘zan vaqtincha koloniya hosil qilib yashaydi. Skeleti yo‘q. Tanasi xaltaga o‘xshash, ichi kovak. Uzunligi 3 sm gacha. Tanasining ostki yassi tovonga o‘xshash tomoni bilan suvdagi narsalar (toshlar, usimliklar, mollyuskalar chig‘anog‘i va b.)ga yopishib oladi, tovoni urtasida torgina teshik bor. Tanasining yuqori uchida joylashadi og‘iz teshigi paypaslagichlar (4-20 ta) bilan o‘ralgan. Tana devori tashqi — ektoderma va ichki — endodermadan iborat. Bu ikki qavatni yupqa tayanch plastinka (mezogleya) parda ajratib turadi. Ektodermada, ayniqsa paypaslagichlarda kuydirish xususiyatiga ega bo‘lgan juda kup otuvchi hujayralar buladi. Ular yordamida gidralar dushmandan himoyalanaadi yoki siklop va boshqa mayda jonivorlarni tutib oladi. Gidralar yil fasllariga qarab jinssiz (kurtaklanib) yoki jinsiy usulda ko‘payadi. Ular meduza hosil qilmaydi. Ayrim jinsli yoki germafrodit. Germafrodit gidralarda erkaklik va urg‘ochilik jinsiy bezlari tanasining turli qismlarida hosil buladi. Gonadasida faqat bitta tuxum hujayra yetiladi. Tuxum hujayra tanasida urug‘lanadi. Urug‘langan tuxum hujayra o‘z atrofiga qalin pust ishlab chiqarib sistaga aylanadi va qishlab qoladi. Qishda ona gidralar nobud bo‘ladi. Bahorda esa zigotadan yosh gidralar rivojlanadi.

Gidralarning 10 dan ortiq turi chuchuk suvlarda yashaydi. Chuchuk suv havzalarida asosan oddiy, ya'ni poyachasiz gidra (*Hydra vulgaris*), poyachali, ya'ni qo'ng'ir gidra (*Pelmatohydra oligactis*), qorong'i joyda yashay olmaydigan yashil gidra (*Chlorohydra viridissima*) va boshqalar uchraydi.

Aktiniyalar (*Actiniaria*) — dengiz bo'shliqichlilari turkumi; marjon-poliplar sinfi olti nurlilar kenja sinfiga mansub. Ko'pchilik turlari yakka yashaydi. Tanasi silindr shaklida, yor-qin rangli, tana diametri 0,5 m gacha, pastki yassi tomoni tovon deyiladi. Aktiniya muskulli tovonni yordamida sekin harakatlanishi mumkin. Ayrim turlari suv tubiga yopishib yoki qumga ko'milib olib harakatsiz yashaydi, suzib yuradigan turlari ham ma'lum. Ta-nasining yuqori uchida juda ko'p paypaslagichlar bilan o'ralgan og'zi joylashgan. Aktiniyalar yirtqich, mayda umurtqasizlar, hatto mayda baliqlar bilan oziqlanadi. O'ljasini otuvchi hujayralar bilan qurollangan pay-paslagichlar yordamida falajlaydi yoki o'ldiradi. Otuvchi hujayralari zahari odam terisini ham kuydirib, og'riq paydo qilishi mumkin. Jinsiy va jinsiz — bo'yiga yoki ko'ndalangiga bo'linish orqali kupayadi. 1500 ga yaqin turi Orol va Kaspiy dengizidan boshqa barcha dengizlarda tarqalgan. Ko'pchilik turlari zohid qisqichbaqalar va boshqa umurtqasizlar bilan simbioz yashaydi.

Poliplar (yun. *polypus* — ko'poyoqli) — yakka yoki koloniya bo'lib o'troq yashovchi bo'shliqichlilarning umumiy nomi. Asosan, dengizlarda (gidralar — chuchuk suvlarda) tarqalgan; o'lchami bir necha mm dan bir necha m gacha. Gavdasi silindrsimon, yuqori tomonida pay-paslagichlar bilan o'ralgan og'zi joylashgan. Pastki "tomon" tomoni bilan sub-stratga (yakka yashovchi P.) yoki koloniya poyasiga (koloniya bo'lib yashovchi P.) yopishadi. Ko'pchilik koloniya bo'lib yashovchi P. tashqi yoki ichki ohak yoki organik skeletga ega. Harakatlanishi, asosan, paypaslagichlarining cho'zilishi yoki qisqarishidan iborat. Ayrim yakka yashovchi poliplar (gidralar, aktiniyalar) substratda sekin siljishi mumkin. Nasl gallanishi orqali ko'payadigan bo'shliqichlilarda poliplar. jinsiz nayel bo'lib, faqat kurtaklanish yoki ko'ndalang bo'linish orqali ko'payadi va P. yoki meduzalar hosil qiladi.

Meduzalar — bo'shliqichlilarning, ko'pincha, erkin yashovchi jinsiy avlodi. Gavdasi xira shaffof (mezogliysi kuchli rivojlanganligi tufayli), soyabon yoki qo'ng'iroq shaklda, diametri bir necha mm dan 2–3 m gacha. Soyaboni chetlarida paypaslagichlari (uz. 30 sm gacha) va sezgi organlari joylashgan. Og'zi soyabonining ostki botiq tomoni o'rtasida bo'lib, odatda, og'iz parraklari bilan o'ralgan. Meduzalar soyaboni ostida suvni siqib chiqarishi tufayli relaktiv usulda

harakatlanadi. Ayrim ssifomeduzalar (stavromeduzalar) suv tubida biron substratga yopishib yashaydi. Meduzalar suv tubida yopishib yashaydigan gidroid poliqlar (bo‘shliqichlilarning jinssiz ko‘payadigan avlodi)dan kurtaklanish tufayli hosil bo‘ladi. Meduzalar ssifoidlar va ko‘pchilik gidropoliqlar uchun xos. Gidralar, ayrim dengiz gidropolishtari va korall poliqlar Meduzalar hosil qilmaydi. Traxilidlar va pelagiylarda nayel gallanishi bo‘lmaydi; Meduzalar tuxumdan hosil bo‘ladi. Meduzalarning jinsiy bezlari oshqozoni yaqinida yoki oshqozondan boshlanadigan gastrovaskulyar sistemaning radial naylarida joylashgan. Gidromeduzalarda jinsiy bezlar ektodermada, ssifomeduzalarda endodermada bo‘ladi. Meduzalar jinsiy yo‘l bilan ko‘payadi; jinsiy hujayralar (tu-xum va urug‘lar) suvga chiqariladi, suvda urug‘lanish ro‘y beradi. Faqat ssi-fomeduzalar (aureliya, qutb Meduzalari) tu-xum hujayralari ona organizmda urug‘lanib, ulardan planula lichinkasi chiqadi. Ayrim Meduzalar (ildizog‘iz Meduzalar, qutb Meduzalar, butli Meduzalar va boshqalar)ning otuvchi hujayralari kuydirish xususiyatiga ega bo‘lgani uchun ular zaharli Meduzalarga kiritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umurtqasizlar zoologiyasi – O.Mavlonov, Sh.Xurramov, X.Eshova (2006)
2. Zoologiya – Dj.Urchinov (1996)
3. Zoologiya – Ochil Mavlonov (2010)
4. Zoologiya – S.Dadayev, O.Mavlonov (2008)
5. w.w.w.vikapedia.org.
6. w.w.w.arxiv.uz